

O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLAR

Sanaqulova Mohiniso Toyirjon qizi

ToshDO'TAU o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

@mohinisosanaqulova.gmail.com +998771257723

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy va samarali usullari haqida so'z yuritiladi. Nutqning o'quv jarayonidagi o'rni, og'zaki ifoda qilishda uchraydigan muammolar va ularni yengish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, dialog, munozara, rolli o'yinlar, hikoya qilish kabi faol o'qitish metodlari yordamida o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari yoritilgan. Maqola pedagoglar, metodistlar hamda til o'rgatish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, ko'nikma, o'quvchi, rivojlantirish, ta'lim, muloqot, metodika, faol usullar.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri – bu o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishdir. Nutq inson tafakkurining ifodasi bo'lib, u orqali fikr almashiladi, o'zaro muloqot amalga oshadi va bilimlar mustahkamlanadi. Ayniqsa, og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning ijtimoiy faol, fikrlovchi va o'z fikrini erkin ifodalay oladigan shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim omildir. Shu sababli maktab ta'limida og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Til – hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, biz unga o'z-o'zidan bo'lishi shart bo'lgan narsa sifatida qaraymiz. Tilning o'zi nima, biz unda qanday so'zlayapmiz, biz qanday qilib so'zlashni o'rganishimiz haqida esa unchalik ko'p o'ylab ham o'tirmaymiz. Bilimni uyushtiruvchi boshlang'ich bosqich sifatida chiqadigan

nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o‘rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufqlarni ochadi, uni o‘zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o‘tiradigan burchagidan chiqishga majbur qiladi.¹[49-bet] Bugungi tezkor axborot almashinuvi sharoitida o‘quvchilarning muloqotga kirishish, fikrini aniq va ravon bayon eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ularning shaxsiy va kasbiy hayotida muhim omilga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirish til va adabiyot darslarida, shuningdek boshqa fanlar doirasida ham tizimli va rejalashtirilgan faoliyat orqali amalga oshirilishi lozim. Maqolada og‘zaki nutq faoliyatining asosiy turlari, o‘quvchilarda uchraydigan asosiy nutqiy kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Jumladan, dialogik va monologik nutq, sahnalashtirish, rolly o‘yinlar, munozarali mashg‘ulotlar, og‘zaki taqdimotlar kabi interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning muloqot kompetensiyasi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Nutq madaniyati – bu to‘g‘ri so‘zlay olish, ya’ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko‘zlangan maqsadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zaxira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon qilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir. Insonning yana bir o‘ziga xos xususiyati, o‘ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, “emotsional muloqotga ehtiyojmandlik”dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo‘lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so‘zlashni o‘rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to‘g‘ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi va o‘zi ham so‘zlashi lozim. Bu o‘rinda tilning uch sifati (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so‘z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko‘plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir. ¹ [50-bet]

-Og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari:

- Dialog va munozaralar orqali;
- Rolli o'yinlar va sahnalashtirish;
- Hikoya aytish va og'zaki taqdimotlar;
- Savol-javob usullari;

-Guruhlarda ishlash kabi usullarni kiritish mumkin. Nutq isnonga eng zarur va har doim yordamchi vositadir.

Bilamizki, ona tili mashg'ulotlari faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalashi shart. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u bolalarning kundalik oddiy salomlashishidan tortib kimga, qachon, qayerda va qanday so'zlashigacha bo'lgan nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu madaniyat sirlari, avvalo, ona tili mashg'ulotlarida til hodisalarini o'rganish jarayonida singdiriladi. Maktabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi tilning jamiyatda tutgan o'rni, bajaradigan vazifasi bilan xarakterlanadi. Til tuzumlar o'zgarishi bilan butkul yangilanmaydi, o'z xususiyatini, vazifasini o'zgartirmaydi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan, sayqal topib borayotgan aniq tarixiy, me'yoriy birlik sifatida jamiyat a'zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy fikr ifodalash vositasidir. ²[370-bet].

O'quvchilarning og'zaki nutqida uchraydigan muammolar

O'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirish – bu uzluksiz va murakkab jarayon bo'lib, unda turli psixologik, metodik va lingvistik omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Afsuski, ta'lim jarayonida ko'plab o'quvchilarda og'zaki nutqda quyidagi muammolar kuzatiladi:

1. Leksik boylikning yetarli emasligi. Ko'pchilik o'quvchilar o'z fikrini og'zaki ifodalashda so'z tanlashda qiynaladilar. Ular bir xil so'zlarni takror-takror qo'llaydilar, sinonimlardan foydalanmaydilar, bu esa nutqning bir xillashishiga olib keladi.

2. Grammatik xatolar. Og‘zaki nutqda gap tuzilmasida xatolar ko‘p uchraydi: ega-va-kesim mos kelmasligi, gap bo‘laklarining joylashuvi noto‘g‘riligi, ot va fe‘l shakllarining aralashib ketishi kabi.

3. Talaffuz va fonetik xatolar. Ba‘zi o‘quvchilar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladilar yoki shevaga xos fonetik xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bu holat o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va nutq faoliyatidan chetlanishiga sabab bo‘ladi.

4. Nutqning mantiqiyligi va izchilligi yetishmasligi. Ko‘p hollarda o‘quvchilar o‘z fikrini tartib bilan, mantiqiy bog‘lanishda ifodalashda qiynaladilar. Nutqda fikrlar bir-biriga ulanmagan, tasodifiy, chalkash holatda bo‘ladi.

5. Nutqiy faollikning pastligi. Ba‘zi o‘quvchilar tortinchoqlik, o‘z fikrini aytishdan qo‘rqish, noto‘g‘ri gapirishdan xavotir olish kabi psixologik to‘siqlar tufayli nutqiy faoliyatda ishtirok etmaydilar. Bu holat ayniqsa sinfda munozara, savol-javob, og‘zaki topshiriqlar vaqtida yaqqol seziladi.

6. Eshita bilish va tushunishdagi muammolar. O‘quvchilar ko‘pincha suhbatdoshni diqqat bilan tinglamasdan, o‘z javobini tayyorlashga shoshiladilar. Bu esa muloqotda uzilishlarga, noto‘g‘ri tushunish va noto‘g‘ri javob berishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Nutq – bu nafaqat fikr almashish vositasi, balki shaxsning tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy faolligining muhim ko‘rsatkichidir. Og‘zaki nutqda uchraydigan grammatik, fonetik, leksik hamda psixologik muammolar o‘z vaqtida aniqlanib, tegishli metodik yondashuvlar asosida bartaraf etilishi lozim. Interaktiv metodlar – jumladan, dialoglar, munozaralar, rolli o‘yinlar, hikoya qilish, sahnalashtirish va guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish, ularning so‘z boyligini oshirish, mantiqiy va izchil nutq yuritishga o‘rgatish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchining nutqiy madaniyati, darsda yaratadigan psixologik muhit ham o‘quvchilarning og‘zaki ifoda qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, har bir pedagog o‘z faoliyatida o‘quvchilarning nutqiy rivojiga alohida e’tibor

qaratmog‘i zarur. Bu esa nafaqat til o‘rganishda, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.BABAYEVA DONO RAZZAQOVNA NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA
METODIKASI

Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018

2.YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH
METODIKASI

(kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021